

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLARNING QABRI OCHILISHI
MASALASI**

Xurramov Firuzjon Davlat o'g'li.

“Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi filial mudiri.

Tel: +99897 854 47 55 Email: firuzjonkhurramov@gmail.com

Temirov Asadbek Ismatillo o'g'li

“Shahrisabz” davlat muzey-qo'riqxonasi b'lim boshlig'i

Tel: +998887462507 Email: temirovasadbek28@gmail.com

Annotatsiya: 1941-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadqiqot doirasida Amir Temur va Temuriylar qabrlari ochilib, ularning antropologik, tarixiy va madaniy xususiyatlari chuqur o'rganildi. Maxsus ekspeditsiya tarkibida mashhur olimlar ishtirok etib, Temuriylar davriga oid ko'plab muhim ma'lumotlar, shaxsiy tafsilotlar, jasadlarning holati va yuz tuzilmalari aniqlashtirildi. Qabrlarning ochilishi jarayonida tarixiy manbalar va xalq og'zaki ijodi tasdiqlovchi asos sifatida tahlil qilindi. Ularning ilmiy rekonstruksiya orqali tarixiy haqiqatlarga yangicha yondashuv shakllandi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar, qabr ochilishi, antropologiya, Gerasimov, tarixiy rekonstruksiya, Navoiy yubileyi, Ulug'bek, arxeologik ekspeditsiya

Аннотация: В 1941 году в рамках празднования 500-летия со дня рождения Алишера Навои была проведена экспедиция по вскрытию гробниц Амир Темура и тимуридов. Целью было изучение их с исторической, археологической и антропологической точек зрения. В составе комиссии работали известные учёные, в том числе антрополог М.М. Герасимов, который реконструировал внешность Темура и его потомков. В результате раскопок были собраны уникальные данные о захоронениях, обрядах и физиологических особенностях представителей династии. Работы были приостановлены из-за начала Великой Отечественной войны, а останки были

отправлены в Москву для дальнейшего изучения.

Ключевые слова: *Амир Тему́р, Тимуриды, вскрытие гробницы, антропология, Герасимов, историческая реконструкция, юбилей Навои, Улугбек, археологическая экспедиция*

Annotation: *In 1941, as part of the 500th anniversary of Alisher Navoi's birth, a special scientific expedition was conducted to open the tombs of Amir Temur and the Timurids in Samarkand. The team, which included prominent scholars and anthropologists such as M.M. Gerasimov, aimed to study the remains from archaeological, historical, and anthropological perspectives. Their research confirmed historical accounts and oral legends, and provided valuable insights into burial customs and physical characteristics. Gerasimov successfully reconstructed the facial features of Temur and his descendants. The expedition was interrupted by World War II, and the remains were sent to Moscow for further examination.*

Keywords: *Amir Temur, Timurids, tomb opening, anthropology, Gerasimov, historical reconstruction, Navoi jubilee, Ulugh Beg, archaeological expedition*

Kirish

Amir Temur va Temuriylar tarixini o'rganish, ularning madaniy merosi, shaxsiy hayoti va tashqi qiyofasini ilmiy asosda tiklash XX asrning o'rtalarida jiddiy ilmiy izlanishlar mavzusiga aylandi. Ayniqsa, 1941-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ilmiy-ekspeditsion tadqiqot doirasida o'tkazilgan Amir Temur va uning avlodlariga oid qabrlarning ochilishi mazkur davr tarixini yangi dalillar asosida o'rganish imkonini berdi. Bu tadqiqotlarda O'zbekiston SSR hukumatining tashabbusi bilan tashkil etilgan komissiya tarkibida mashhur antropolog, tarixchi va arxeolog olimlar ishtirok etib, Temuriylar avlodining dafn marosimlari, antropologik xususiyatlari, hamda tarixiy manbalar asosida yuzaga kelgan afsona va tasavvurlarning haqiqatga muvofiqligi chuqur tahlil qilindi. Mazkur maqolada ushbu ekspeditsiyaning ilmiy va tarixiy ahamiyati, olingan natijalar va bu tadqiqotlar asosida vujudga kelgan yangi ilmiy qarashlar tahlil qilinadi.

1941-yilning aprel oyida O'zbekiston SSR Xalq komissarlari soveti hamda

O'zbekiston KP markaziy komiteti Alisher Navoiy yubileyining tadbirlarini o'tkazish doirasida u yashagan davrni tarixiy, arxeologik va antropologik jihatdan o'rganish maqsadida Navoiy komitetiga, Samarqanddagi Amir Temur, Ulug'bek, Qozizoda Rumiy dahmalarini ochishga ruxsat berish haqida qaror qabul qiladi. Ushbu qarorga muvofiq maqbarani ochish 1941-yili o'tkazilishi mo'ljallangan Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik yubileyi munosabati bilan u yashagan davr tarixini chuqur o'rganib, tarixiy dalillarni tekshirib olish maqsadida amalga oshirilgan edi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun maxsus hukumat komissiyasi tuzilib, unga ittifoqning mashhur olimlari jalb etilgan edi. Ekspeditsiya tarkibiga akademik Qori-Niyoziy (rahbar), antropolog L.V. Oshanin, tarixchi, sharqshunos, professor A.A. Semyonov, kimyo professori, restavrator V.N. Kononov, me'mor B.N. Zasipkin, antropolog-haykaltarosh M.M. Gerasimov, arxeolog V.A. Shishkin, yozuvchi S. Ayniy, yubiley komissiyasining ilmiy kotibi H.T. Zarifovlar bor edi. Ekspeditsiya a'zolarining oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat edi: Temuriylar xilxonasida kimlar dafn etilganini aniqlash, dafn qilish urf-odatlarini o'rganish, jasadlarni antropologik jihatdan to'liq o'rganish, Temuriylar haqidagi mavjud tarixiy manbalar hamda xalq orasidagi afsonalarning qay darajada to'g'riligini aniqlashdan iborat edi. Shuningdek, Gerasimovga Temur va Temuriylar bosh chanoqlari asosida ularning yuz tuzilishini qayta tiklash vazifasi ham qo'yilgan edi. Ishni chekkada turgan birinchi qabr — Mironshoh Mirzoning qabridan ochishni boshlashdi. Mironshoh 1408-yilning bahorida qoraqo'yunli turkmanlarning sardori Qora Yusuf va Sulton Ahmad jaloirning birlashgan qo'shiniga qarshi Ozarbayjonda mag'lubiyatga uchraydi va jangda vafot etadi. Uning kallasi tanasidan judo etilib, Qora Yusufga jo'natiladi.

Shohruh Mirzoning qabrdan chiqarilib, Samarqand davlat universitetiga olib kelinib tadqiq etildi. Antropolog Oshanin fikriga ko'ra, Shohruh 70 yoshlarda allaqachon juda qarib qolgan va uning tishlarining bari to'kilib bo'lgan. Gerasimov esa Temurning ayni yoshda juda baquvvat bo'lganini qayd etgan. U jismonan nozik odam bo'lgan bo'lib, bo'yi 157 sm ekani oydinlashgan. Antropologlar uning bosh chanog'i otasinikidan farq qilib, Farg'ona-Pomir ko'rinishida ekanini aytishadi. 18-

iyun kuni Amir Temurning oyoq tomonida dafn etilgan buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bek qabri ochildi. Qabr ustidagi marmar plitani surish maqsadida maxsus texnika o'rnatildi. Qabr ichining uzunligi 210 sm, eni 68 sm, chuqurligi 61 sm. Qabrni yopib turgan marmar plita ustida Ulug'bek haqidagi ma'lumotlar bor. Umuman, har bir qabr tosh ustidagi yozuvlar, asosan, qabr egalari haqidagi ma'lumotlar, Qur'on oyatlari, hadislar va hikmatli so'zlardan tashkil topgan. Ulug'bek jasadini o'rganish jarayonida uning ham boshi kesilgani haqidagi ma'lumot tasdiqlandi. Uning boshi tanasidan uzoqroqda yuzi yerga qaratib qo'yilgan. Bosh chanog'i bilan uchta bo'yin umurtqasi yopishib turgan. Uchinchi umurtqada o'tkir tig'ning izi yaqqol ko'rinib turibdi.

Amir Temurning qabrini ochish ishlari 19-iyunda boshlandi. Uning qabri qolgan qablardan o'z salobati bilan ajralib turadi. Qabr 20 sm qalinlikdagi marmartosh bilan berkitilgan bo'lib, qabrning uzunligi 245 santimetr, eni 90 santimetrdir. Bu qabrtosh ustiga boshqa yupqa yozuv bitib ishlangan oniks toshi yopishtirilgan. Qalin toshning tagida o'n santimetr qalinlikda ganch qatlam bo'lib, bu qatlam tagida lahadning og'zini yopib turgan beshta qalin toshtaxta yotqizilgan. Qabrning lahadi taroshlangan tosh taxtalardan yasalgan bo'lib, uzunligi uch metr, eni va chuqurligi bir metrdandir. Temurning tashqi qiyofasi haqida XV asr miniatyuralarida saqlanib qolgan tasvirlar, tarixchilar yozib qoldirgan tavsiflardan farq qiladi. Shu sababli ekspeditsiya oldiga uning tashqi qiyofasini ham qayta tiklash vazifasi qo'yilgan edi. Jasadning uzunligi 170 smdan yuqori edi. Shuningdek, suyaklarni o'rganish jarayonida uning o'ng qo'li tirsagidan bukilmaydigan bo'lib bitib qolgani aniqlandi. Ammo yelka mushaklari butunligi sabab bemalol harakat qila olgan va hatto barmoqlar harakatiga qarab bu qo'l ancha kuchli bo'lganini ham payqash mumkin. Ekspeditsiya nemis qo'shinlarining Sovet Ittifoqi hududiga bostirib kirgani tufayli zudlik bilan tugatildi va suyaklar o'rganish uchun Moskvaga olib ketildi. Gerasimov bosh suyaklar asosida Temur va Temuriylar tashqi qiyofalarini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi.

Xulosa

1941-yilgi arxeologik ekspeditsiya Amir Temur va Temuriylarning tarixiy haqiqatlarini o'rganish yo'lida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Ekspeditsiya davomida nafaqat tarixiy manbalar asosida tasvirlangan shaxslar haqidagi ma'lumotlar tasdiqlandi, balki ularning tashqi ko'rinishi, antropologik o'ziga xosliklari, dafn urf-odatlar ham aniqlandi. M.M. Gerasimov tomonidan amalga oshirilgan yuz rekonstruksiyalari tarixiy shaxslarning real qiyofasini tiklash imkonini berdi va xalq og'zaki ijodi hamda yozma manbalar bilan qiyoslash imkoniyatini yaratdi. Shuningdek, ekspeditsiya Temuriylar tarixining chuqurroq o'rganilishiga turtki berdi va ularning madaniy merosini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini yaratdi. Urush sharoitiga qaramasdan olib borilgan bu tadqiqotlar o'zbek tarixshunosligida o'chmas iz qoldirdi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va xulosalar Temuriylar tarixini o'rganishda ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ
ИСТОЧНИКИ**

1. Герасимов М.М. Восстановление лица по черепу. — М.: Наука, 1955. — 213 с.
2. Каюмов А. История вскрытия гробницы Амира Темура. // Журнал «Историк». — Ташкент, 1991. — №4. — С. 35–39.
3. Саидов А.С. Амир Темура ва Темурийлар даври маданияти. — Тошкент: Фан, 1996. — 188 б.
4. Temuriylar tarixi va madaniyati. Ilmiy maqolalar to'plami. — Samarqand: SamDU, 2004.
5. Niyozov T. Amir Temur: Tarixiy shaxs va haqiqat. — Toshkent: O'zbekiston, 2005.
6. Semyonov A.A. Materialy po istorii Sredney Azii. — M.: Nauka, 1948.
7. Oshanin L.V. Antropologiya naseleniya Sredney Azii. — Ташкент: Fan, 1964.
8. Zarifov H.T. Ulughbek haqida tadqiqotlar. — Toshkent: Fan, 1970.